

BUYUK IPAK YO'LI MADANIYATLAR YOYILISH IDIZI: O'ZBEKISTON BUYUK IPAK YO'LI CHORRAHASIDA

Habibov Sino Sattorzoda

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq sivilizatsiyasi
va falsafa fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buyuk ipak yo'lining sharq va g'arbni bog'lab turuvchi savdo va madaniyatlar almashinuvi vositasi, insoniyat rivojlanishining bir nuqtasi bo'lib xizmat qilganligi va hozirgi kunga kelib O'zbekistonda Buyuk ipak yo'li madaniy merosini qayta tikash va bu yo'ldagi tarixiy va madaniy obidalarini saqlanishiga e'tiborni yanada kuchaytirish to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Sharq va G'arb, Buyuk ipak yo'li, nefrit, Eron va Sug'd savdogarlari, YUNESKO*

Abstract : *In this article, the fact that Great Silk Road served as a means of trade and cultural exchange connecting the East and West, as well as a point of human development, and the restoration of the cultural heritage of Great silk Road in Uzbekistan to this day and this opinions on increasing attention to the preservation of historical and cultural monuments in the country were presented.*

Keywords: *East and West, The Great Silk Road, Neprhrite, Iranian and sughd merchants UNESCO*

Абстрактный: *В данной статье рассматривается тот факт, что Великий*

Шелковый путь служил средством торговли и культурного обмена, соединяющим Восток и Запад, точкой развития человечества, а также восстановление наследия Велеково Шелкового пути в Узбекистане по сей день. И при этом были представлены мнения об уселении вниманя к сохранению памятников истории и культуры в стране.

Ключевые слова: *Восток и Запад Великий Шелковый путь нефрит купцы Ирана и Согде ЮНЕСКО.*

Kirish: *Buyuk ipak yo'li sharq va g'arbni bog'lovchi savdo va madaniyat yo'li bo'lib, (miloddan avvalgi II asr va milodiy XV asrlar) davomida xizmat qilgan. Buyuk yo'li atamasi ushbu yo'ldan tashilgan qimmatbaho mahsulot – Xitoy ipagi bilan bog'liq. Insoniyat tarixida ulkan o'ringa ega bo'lgan, ushbu savdo yo'li degiz*

yo'llari ochilishiga qadar yagona va birlamchi savdo yo'li vazifasini bajarib keladi. Ushbu yo'l Yevropa va Osiyoni bir – biriga bog'lab, qadimgi Rim davlatidan to Yaponiyaning qadimgi poytaxti Nara shahriga qadar cho'zilgan.

O'zbekiston esa Buyuk meridianal yo'lining qoq markazida joylashib madaniyatlar almashinuvining bir qismi sifatida qaraladi. Uni tadqiq etish bilan dunyoning turli joylaridan turli olimlar qo'l urgan va o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shib qoldirishgan. Misol tariqasida G'arbiy Yevropa, Rossiya, Yaponiya, Germaniya va shu kabi davlat olimlarining hissaları ulkan o'rin egallagan. Unga "Ipak yo'li" deb nom 1877-yilda nemis tarixchisi Rixtgofen tomonidan berilgan. Chunki bu yo'lda, asosiy mahsulot – ipak olib o'tilar edi. Dastlab Buyuk ipak yo'lining qaysi hududlardan o'tgan ekanligiga to'xtaymiz. U Pomir tog'laridan boshlanib Eron, Old Osiyo va Misr orqali o'tgan. Buyuk ipak yo'li nihoyatda ulkan masofani 12 ming kilometr gacha bo'lgan masofani o'z ichiga olgan. Bu yo'lda Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv va boshqa bir qancha qadimiy shaharlar joylashgan. Buyuk ipak yo'lining tarmoqlari o'tgan ushbu shaharlarda savdo va madaniy aloqalar keng rivojlanadi. Bu yo'l sharq va g'arb mamlakatlari o'rtasida nafaqat savdoning rivojlanishiga balkim, til va etnik jihatlarini turli bo'lgan xalqlarning madaniyatlar almashinuviga, ular o'rtasida do'stlik va yaqin qarindoshlik aloqalarini o'rnatish uchun ham keng vosita bo'lib xizmat qildi.

Asosiy qism: Buyuk ipak yo'li Sharq va G'arbni bog'lovchi, turli mamlakatlarning savdo-sotiq, tijorat aloqalarining asosiy vositasi bo'lganligidan bu yo'nalishda joylashgan davlatlar undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishgan, yohud bu borada o'z mavqeini mustahkamlashga intilishgan. Shu bois turli tarixiy bosqichlarda turli davlatlar bunga intilib buyuk ipak yo'li ustidan o'z nazoratlarini o'rnatganlar. Masalan mil.avv VI-IV asrlarda Eron ahamoniylari, mil.avv IV asrda esa makedoniyalik Aleksandr, mil.avv II-I asrlarda Rim Parfiya davlatlari o'rtasida bu borada qattiq raqobat ketadi. Arab xalifaligi vujudga kelgunga qadar bu yo'lining Eron va Sug'diyona hududlaridan o'tgan qismida Eron va Sug'd savdogarlari yetakchi rolini o'ynaganlar. Arab xalifaligi kuchayib, ko'plab hududlarni qo'lga kiritgach, bu yo'l arab savdogarlari qo'lga o'tadi. Buyuk sohibqiron Amir Temur davriga kelib uning qudratli saltanati vujudga kelgach, Buyuk ipak yo'li sarhadlari yanada kengayib, yanada rivoj topadi. Buyuk ipak yo'lining yana bir katta ahamiyat kasb etgan jihat ushbu yo'nalish bo'ylab juda ko'plab savdogar – sayyohlar, olimlar shu bilan bir qatorda, turli davlat boshliqlar o'rtasida elchilik aloqalarini o'rnatish uchun elchilar ham bu yo'ldan foydalanishgan. Ular ushbu sayohat davomida o'zlarining ko'rgan, kechirganlarini yozib qoldirganlar. Jumladan, bu yo'l siyosiy jihatdan hukumdorlarning qiziqishlarini oshirgan. Misol tariqasida Xan imperiyasi mil.avv I ming yillik

oxirida o'z hududini kengaytirish maqsadida alohida e'tibor qaratadi va bu yo'l haqida ma'lumot to'plash maqsadida ayg'oqchilik va diplomatic masalalar yuzasidan Chjan Szyanni yuboradi. Ammo Suriyadagi O'rta yer dengizining sharqida joylashgan Gierapol shahridan Serikagacha bo'lgan masofa bo'ylab cho'zilgan dastlabki yo'l batafsil tarzda makedoniyalik savdogar May Tisian tomonidan o'rganilgan. Bu ma'lumotlar Ptolomeyning "Geografik qo'llanmasi" da saqlangan. Ptolomey esa o'z navbatida bu ma'lumotlarni tarixchi Marining taxminan 107-114 yillar oralig'ida yozilgan va bizgacha yetib kelmagan asarlaridan olingan. Xususan Rim papasi Innokentiy IV ning Plano Karioni boshchiligidagi elchilari Fransiyaning Lion shahridan chiqib, mo'g'ullar davlatining bosh shahri Qoraqumga kelishadi. Ular o'z elchilik vazifalarini bajarib 1247-yilda Lion shahriga qaytib ketadilar. Plano Kripniy boshchiligidagi elchilar Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'idan foydalanishga edi. Bu yo'lining ahamiyati Xitoy hukumatiga Xan sulolasining hukumdori U-di tomonida Xitoyning xunalarga qarshi kurashi uchun ittifoqchi izlab Qang'uyaga yuborilgan Xitoy elchisi va sayyohi, saroy zobiti Chjan Syan orqali ma'lum bo'lgan. Bungacha Xitoy G'arbiy meridianal yo'ldan foydalangan. Bu yo'l orqali Xo'tan nefriti Xitoyning markaziy viloyatlariga mil.avv II mingyillikda kela boshlagan edi. Nefrit savdosida yuechji qabilasi asosiy vositachi bo'lgan Xan sulolasi davrida ana shu nefrit savdo yo'li orqali Sharqiy Turkistonga ko'plab ipak matolar borardi². Xitoy bu yo'lni iqtisodiy zaruriyat tufayli qo'lga kiritishga harakat qildi. Shu tarzda bu yo'ldan turli mamlakatlarga turli savdo buyumlarini ayirboshlash uchun foydalanishda davom etiladi. Ipak yo'li orqali Xitoydan O'rta Osiyo va G'arb mamlakatlariga asosan ipak va shoyi matolar, ilk o'rta asrlardan boshlab qog'oz olib chiqilgan bo'lsa, G'arb davlatlaridan Xitoyga shina, jun matolar, gilam, palos, metal, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho toshlar: qizil yoqut, feruza, serdolik, shuningdek, dorivorlar, tulpor otlar olib borilgan. Bundan tashqari Ipak yo'li orqali buddaviylik dini. Xitoy hududiga Markaziy Osiyo orqali kirib kelgan. Buyuk ipak yo'lidagi savdo aloqalar dastlab Mo'g'ullar bosqini davrida biroz vaqtga bo'lsada to'xtab qoladi. Lekin mo'g'ul bosqinlaridan keyin ham Ipak yo'li o'z faoliyatini yana davom ettiradi. Mo'g'ul hukumdorlari undan katta daromad olish maqsadida unga iloji boricha katta mablag'lar sarflashadi. Chet ellik savdogarlar esa alohida imtiyozlarga ega bo'lib, mamlakat hududida erkin harakat qilishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan edi. Bu davrda karvon yo'llari ancha yaxshilanadi, daryolarga ko'priklar quriladi, tog'larda o'tish qiyin bo'lgan joylarda kengaytirish ishlari olib boriladi. Mo'g'ullar davridagi savdo yo'lining o'ziga xosligi unda Qozoq cho'llaridan o'tgan shimoliy tarmoqm anchagina taraqqiy etdi. O'rta Osiyoning Buyuk ipak yo'lida olib boriladigan savdodagi o'rnini oshirishga Amir Temurning hissallari katta. U iloji boricha savdo yo'llarini

umumlashtirishga va ularning xavfsizligiga katta e'tibor beradi. Amir Temurning o'lmidan so'ng O'rta Osiyodagi o'zaro urush va tartibsizliklar ipak yo'lidagi O'rta Osiyodagi savdogarlarni o'rnini pasaytirishga olib kelgan. Biroq Mustaqillikga erishgach, O'zbekistonning yangi iqtisodiy siyosati dunyo davlatlari bilan jahon savdosining ahamiyatini orttirdi. Yevropa, Osiyo, Afrika yo'nalishidagi qo'shimcha savdo yo'llarining tashkil etish borasidagi harakatlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda mavjud qatnov tranzit tashuvni samaradorligini yanada orttirish vazifa sifatida qo'yilgan. O'zbekistonning tranzit sohadagi boshqa davlatlar bilan hamkorlikning chuqurlashuvi, rivoji va kadrlar tayyorlash tizimi, savdo meyorlari, qoidalarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

Muhokama: 1949-1994 yillar oralig'ida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Yevropa Iqrisodiy

Kengashi doirasida tayyorlangan transport qatnovi doirasidagi 50 turli xalqaro bitimlar va konkonvensiyalar ko'rib chiqildi va imzolandi. Shu bilan bir qatorda YUNESKO ham Buyuk ipak yo'lining jahon tarixidagi o'rnini va ahamiyatini beqiyos ekanligini ko'zda tutgan holda "Buyuk ipak yo'li muloqat yo'li" nomli dastur ham ishlab chiqdi. Bu dasturning mazmun va mohiyati shundan iboratki, dunyo xalqlarining o'zaro madaniy aloqalarida nafaqat urushlar balki, savdo munosabatlari ham muhim ahamiyat kasb etganligini namoyish etish, bu yo'lda joylashgan tarixiy yodgorliklar hamda asotirlarni asrab avaylash kiradi. Buyuk ipak yo'li yurtimizda ham katta iz qoldirgan. U dunyo xalqlariga o'n yetti asr davomida xizmat qilgan. Hozirda malakatimizda ham "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizmini rivojlantirish bo'yicha bir qator rejalar va loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahrida "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazining ochilishiga bag'ishlangan tatanali marosimda nutqida ushbu fikrlarni alohida ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham, Sohibqiron Amir Temur bobomiz o'zi barpo etgan qudratli saltanat uchun aynan Samarqand shahrini poytaxt etib belgilaganligi bejiz emas deya aytib o'tadi. Shu ma'noda, davlatimiz rahbrari tashabbusi bilan Samarqandning azaliy shuhratini tiklash yo'lida so'nggi yillarda keng ko'lamli bunyodkorlik va obodonchilik ishlari olib borildi. YUNESKO homiyligida, xusasan Samarqandda (1990 yili), Xivada (1991-yil), Buxoroda (1996 -yili) xalqaro ilmiy konferensiyalar bo'ladi. Toshkentning eng go'zal ko'chalaridan biriga Buyuk ipak yo'li nomi berilgani ham bejiz emas. Mustaqil O'zbekiston buyuk karvon yo'li ta'sirini tiklashga o'z hissasini qo'shmoqda.

Xulosa; Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Buyuk ipak yo'li insoniyat tarixida nihoyatda keng o'ringa ega bo'ldi. Birinchidan, G'arb va Sharq mamlakatlarini savdo ayirboshlashlari uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan, ushbu yo'l tarmoqlari o'tgan hududlarda madaniyat, iqtisod va boshqa ko'plab sohalarning rivojlanishiga

olib keldi. Uchinchidan, dunyo xalqlari orasida madaniyatlar almashinuviga va o'zaro yaqin qarindoshlik aloqalariga ham olib keladi. Buyuk ipak yo'li faqat savdo yo'li bo'lib qolmay, ko'plab madaniyatlarning, sivilizatsiyalar rivojlanishining beqiyos belgisi bo'ldi. Umumiy qilib aytsak, Buyuk ipak yo'li Sharq va G'arb mamlakatlarining bir-biriga ta'sirini kengaytirdi va ular o'rtasida madaniyatlar qorishmasini yaratdi. Eng katta ta'siri u dunyo xalqlari o'rtasida do'stlik va yaqinlik aloqalarini mustahkamladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamarahmonova Bashorat Ismatovna Buyuk ipak yo'li sivilizatsiyalararo muloqat yo'li Toshkent 2010.
2. Ashirova Noila Xasan qizi Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyo shaharlaridagi taraqqiyot yo'li.
3. O'zbekiston milliy emsklopediyasi Toshent 2001,
4. Abdullayev Azimjon Ashurvoy o'g'li Buyuk ipak yo'li shakllanishi, rivojlanis bosqichlari va ahamiyati. <https://in-academy.uz> , <https://www.sayyoh.com> , <https://oefn.uz>

